

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT» KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK:658.01:658(575.1)

QAHHOROVA E'ZOZA QAHRAMON QIZI
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING
ISHLAB CHIQRISH JARAYONI TAHLILI VA
AUDITI

70410102– «Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)»
mutaxassisligi bo'yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof. Xajimuratov N.Sh.

TOSHKENT–2023

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

11 -sonli bayonnoma «26» aprel 2023-y.

Kafedra mudiri:

i.f.d., prof N.Sh.Xajimuratov


imzo

18.05.2023-y
sana


Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof N.Sh.Xajimuratov


imzo

18.05.2023-y
sana

Tinglovchi: E.Q.Qahhorova


imzo

17.05.2023-y
sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil

«18» may

№ MUA-01/8 raqami bilan ro'yxatga olindi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish va auditdan o'tkazish masalalari yoritilgan. Ishda ishlab chiqarish xarajatlarini auditdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi kunda amaliyotda mavjud bo'lgan muammolar keltirilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarining ishlab chiqarish jarayoni natijalari tahlil qilingan. Ishlab chiqarish jarayoni auditida auditning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish xarajatlari, direkt kosting, JIT, ichki audit, tashqi audit, ichki audit xizmati, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.*

ABSTRACT

The issues of analysis and audit of the production process of economic entities are covered in this dissertation. The work presents the problems related to the audit of production costs, which exist in practice today. The results of the production process of entities were analyzed. In the audit of the production process, proposals are made for the transition to international standards of audit.

Key words: *production costs, direct costing, JIT, internal audit, external audit, internal audit service, international standards of auditing, international standards of financial reporting.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati	7
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6. Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1. Ilmiy–nazariy adabiyotlar sharhi	14
2.2. Ilmiy–amaliy adabiyotlar sharhi	23
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	26
3.1. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar	26
3.2. Tadqiqotning ma'lumot manbalari	26
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI	27
4.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayoni tahlili va auditining nazariy asoslari	27
4.2. Ishlab chiqarish xarajatlar hisobini tashkil qilish va mahsulot tannarxini aniqlash.....	39
4.3. Ishlab chiqarish xarajatlarni auditorlik tekshiruvini tashkil etish.....	59
V BOB. XULOSA	75
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	75
5.2. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar.....	75
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	76
5.4. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tegishliligi va natijalarning amali ahamiyati.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	77

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Respublikamizda o'tkazilayotgan tub islohotlardan bosh maqsadi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat qurish va uni rivojlantirishdir. Shuning uchun ham markazlashtirilgan ma'muriy – buyruqbozlik uslubidagi iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning strategik yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu mamlakat iqtisodiyotida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonani vujudga keltirish hamda mavjud moddiy, mehnat va moliya resurslarini samarali foydalanishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish, ularni bosqichma- bosqich, ya'ni evolyutsion yo'l bilan amalga oshirish maqsadiga muvofiqligi alohida ta'kidlangan.

Korxonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun xo'jalik mexanizmining barcha elementlari mukammal ishlashi zarur. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi xo'jalik mexanizmining asosiy elementi sifatida korxonani boshqarish uchun talab qilinadigan ma'lumotlarning asosiy qismini berishni e'tiborga oladigan bo'lsak, bozor iqtisodiyoti talablari asosida tashkil qilish kunning o'ta dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Xarajatlar hisobi va auditining nazariy va uslubiy asoslarni bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda har bir tarmoqning ayniqsa, respublikamizning sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan yengil sanoat korxonalarining o'ziga xos tashkiliy- texnologik xususiyatlarini hisobga olib yo'lga qo'yish hozirgi kunning o'ta muhim, yechimini kutayotgan muammolari sirasiga kiradi. Chunonchi, ushbu muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi tarmoq korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Bularning tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi uning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946 sonli qarori bilan auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratmoqda.